



BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI INDIVIDUAL BAHOLANISHI

F.A.Ibragimov, M.I.Kosimhojiev, D.I.Sadikova

Qo'qon Universitetining Andijon filiali

Andijon davlat tibbiyot instituti

Bolalarning jismoniy rivojlanishini individual baholashning barcha usullari standart-normativni (baholash yoki referent jadvallarini) yaratishni nazarda tutadi va unga asoslanadi. Norma ushbu yosh-jins guruhidagi «ko'pchilik» sog'lom bolalarning haqiqatda mavjud bo'lgan yosh, jinsiy, mintaqaviy va boshqa xususiyatlarini aks ettirishi lozim bo'lgan sifat holati sifatida qaraladi.

Tadqiqotning maqsadi - bolalarning jismoniy rivojlanishini individual baholanishi

Material va tadqiqot usullari. Andijon viloyati Andijon shahridagi 31-maktabning 1, 2, 3 sinf o'g'il-qizlari ko'rikdan o'tkazildi. Jami 246 nafar o'quvchi, shundan 134 nafari qiz va 112 nafari o'g'il bolalar edi. Uchta asosiy antropometrik belgi o'rganildi – vazni, bo'yi, ko'krak qafasining aylanasi. O'lchovlar kunning birinchi yarmida olindi. Antropometrik parametrlarning parametrik usullari ishlatilgan statistika: o'rtacha arifmetik (M), uning xatosi (m), o'rtacha kvadrat og'ish (σ), o'zgarish koeffitsiyenti hisoblab chiqildi. Statistik ahamiyati farqlar Styudent t-mezoni yordamida baholandi. Ahamiyat darajasining kritik qiymati 5% ga teng deb qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari: Bizni natijalarimizga ko'ra o'rganilgan yosh davrlarida - o'g'il bolalar vazni 1,5 barobar, qizlarda 1,9 barobar oshadi va o'g'il bolalar 9 va 10 yoshda, qizlarda esa 7 va 9 yoshda eng intensiv o'sish kuzatildi. Tahlillarimizga ko'ra, har ikki jinsning tana uzunligi 1,2 barobar oshib, o'sishi 9 va 10 yoshda o'g'il bolalar, 7 va 8 yoshda qizlarda intensivlik aniklandi.

Xulosa: Mintaqaviy yosh-jinsiy standartlarni umumlashtiruvchi usul (baholash jadvallari) bilan yaratish - bolalarning katta guruhlarini tekshirishga asos bo'lgan muntazam jarayon. Standartlarni yaratishda fazoviy-vaqt cheklavlari muhim rol o'ynaydi, bu esa bolalarning jismoniy rivojlanishi normativlarini har 10-15 yilda muntazam qayta ko'rib chiqish zarurligini taqozo etadi.